



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

28 FEVRAL
№25

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Choriyeva Zamira ALISHER NAVOIY HIKMATLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI	7
2. Ashurova Shoira Shodiyevna ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA HAYOT VA INSON HAQIDA FALSAFIY TUSHUNCHALAR TALQINI.....	9
3. Akbarova Mayram Mashrabovna, Abduraimova Shoxida Abdulxakimovna QISSASI RABG'UZIY ASARINING MUMTOZ ADABIYOTIMIZDAGI AHAMIYATI	11
4. Axmedov Alimjon Maxmudovich O'ZBEK TILINING MA'NOSI HAYOTIMDA.....	13
5. Matnazarova Dilrabo Maxsudbekovna ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA SINONIM SO'ZLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	15



АДАБИЁТ

ALISHER NAVOIY HIKMATLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Choriyeva Zamira Tirkashevna

Toshkent shahri Turin politexnika universiteti huzuridagi
akademik litseyOna tili va adabiyot o'qituvchisi
+998- 99 -830-97-75

Annotatsiya: Badiiy adabiyotdan bahramand bo'lish, ayniqsa, Navoiy asarlarini o'rganish yosh avlod ma'naviyatining yuksaltirish uchun zamindir. Kitobxonlikka ko'ngil qo'ygan, badiiy adabiyotdan ozuqa olgan, ilmli, dunyoqarashi keng insonlar hayotda doimo ilg'or va boshqalar uchun yo'lboshchi bo'lганlar. Ushbu maqolada Navoiy ijodidan namunalar keltirilgan. Hikmatli she'rlari, fard, qit'alarining izohlari berilgan. Yosh avlod tarbiyasida ustozlarning mas'uliyati zarurligi yoritilgan. Darslarda hikmatlardan foydalanish natijasi haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kitob, kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ozuqa, ijodkorlik, ruhiy quvvat, yoshlar, yuksaltirish, himmat, hikmat

Badiiy adabiyot o'quvchilarga insoniy fazilatlarni singdiruvchi, ma'naviy-ruhiy ozuqa beruvchi, ijodkorlikka, ixtiro qilishga bo'lган qiziqishlarini rivojlantiruvchi omildir.

O'quvchilarning badiiy adabiyot va mutolaaga qiziqtirish esa biz –adabiyot o'qituvchilarining vazifasidir!

Tuxm(urug') yerga tushub chechak bo'ldi,

Qurt jondan kechib ipak bo'ldi.

Lola tuxmicha g'ayruting yo'qmu?!

Pilla qurticha himmating yo'qmu?!

Navoiyning insonlarga motivatsiya berish ruhida yozilgan ushbu satrlarini o'qib juda ta'sirlandim. O'quvchilarimga har gal o'qib berganimda ulardagagi ruhiy quvvatlanishi mening ushbu maqolamni yozishimga sabab bo'ldi. Naqadar jonli hayotiy iqtibos: urug'ning yerga tushgani uning nihol bo'lishi uchun asos, pilla qurtining hayoti esa ipak bog'langan uyada nihoya topadi. Bunda shoir yuksak badiiy tasvir bilan o'quvchiga murojaat qiladi: nozik lola o'simligi urug'idek g'ayratli bo'la olmaysanmi?! Pilla qurtidek himmat qila olmaysanmi?!

Dars va ma'naviyat majlislarida Navoiyning hikmatli baytlaridan foydalanishni, bu bilan o'quvchilar ruhiyatini o'stirish va ezbeglikka chorlashni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Quyida foydalanish uchun hikmatlar namunalaridan keltirmoqchiman.

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Ya'ni kim ko'ngli o'ksik bir insonni xursand qilsa, yiqilgan Ka'bani qaytadan qurban, ta'mirlagan kabi savobga noil, degan fikr ilgari surilmoqda.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'.

Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

Ota-onaga hurmat mavzusi Navoiy hikmatlarining asosiyalaridan biridir. Bunda shoir ota-onsa uchun boshni, jismni fido etish lozimligini, ularni hayotimiz tun va kunida nur sochishini e'tirof etib oy va quyosh deb bilishimiz lozimligini uqtirmoqda.

Navoiy o'zining "Nasoyim ul muhabbat" asarida keltirilgan hikoyatda onalar xizmatida bo'lish haj safari bilan tengligini yozadi. Ushbu hikoyat zamirida ham yuksak hurmat tuyg'usi borki, o'quvchilar uchun katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

Xoja Abdullo Ansoriy debdurlarkim, Ismoil Dabbos dedikim, haj niyatida safarga chiqib, She'rozga yetishdim. Bir masjidga kirdim. Shayx Mo'minni ko'rdimki, o'tirib, xirqasiga yamoq



solardi. Salom qildim va o‘tirdim.

Mendan so‘radi:-Ne niyating bor?

Dedim: -Haj niyatim bor.

Dedi: -Onang bormi?

Dedim: -Bor!

Dedi: -Qaytib, onangni xizmatiga bor!

Bu so‘z menga xush kelmas edi. Dedi:

-Nega to‘lg‘onasan? Men boshyalang, oyoqyalang, yolg‘iz va oziqasiz ellik marta haj qilganman.

Barchasini savobini senga berdim. Sen onang ko‘ngli shodligini menga ber!

Kimni tilasang bilay, maqolin angla,

Aslin desang anglayin, fiolin angla,

Kirdorig‘a boqib, asl holin angla,

Aslig‘a dalil aning xisolin angla.

Ushbu ruboiy ma’nosи: birovning kimligini bilay desang, uning so‘ziga e’tibor ber. Uning aslini bilay desang, fe’li va tutgan ishiga qarab, asl holini bilgin. Asliga dalil uning fe’l-atvordir.

Falokatdin ayog‘iga kafsh bo‘lmag‘anga chun kafsh uchun ayog‘i bor, shukr vojibdur

Ulki, iflosdin ayog‘inda

Kafsh yo‘li azmi chog‘i yo‘qtur oning,

Shukr qildik boqib birav sori, -

Ki yururg‘a ayog‘i yo‘qtur oning.

«Badoye‘ ul-vasat» 41-qit‘ada Sunday fikrlar jamlangan. yo‘lga chiqqan bir kimsaning ifloslardan himoya qilish uchun oyog‘iga kiyay desa, kavushi yo‘q, ammo boshqa birovga boqsaki, yuray desa, oyog‘i yo‘q ekan.

Bu qit‘a zamirida, har qanday kishi o‘z ahvoldidan shikoyat qilishdan oldin orqa-oldiga, yon-atrofiga qarasin, qiyoslasin, keyin xulosa chiqarsin, degan oqilona o‘git yashirin. Mingni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr qil, degan xalq maqoli kabi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilar ma’naviyatini badiiy so‘z qudrati vositasida yuksaltirishda nafaqat adabiyot fani o‘qituvchilari, balki barcha fan o‘qituvchilarini ham jalb etish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashda ma’naviyat daqiqalarini uysushtirish, hikmat, she’r, maqol yoki hikmatli hikoyatlardan foydalanish o‘quvchining ruhiyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi, ularga ma’naviy ozuqa beradi.

Navoiyning hikmatga to‘la ijodiy me’rosidan o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviyatini yuksaltirish uchun unumli foydalanish joiz, deb o‘ylayman.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilar ma’naviyatini badiiy so‘z qudrati vositasida yuksaltirishda nafaqat adabiyot fani o‘qituvchilarini, balki barcha fan o‘qituvchilarini ham jalb etish maqsadga xilof emas. Zero, badiiy adabiyot namunalardan barcha insonlar bahramand bo‘ladilar. Darsni boshlashda ma’naviyat daqiqalarini uysushtirish, 2-5 daqiqalik hikmat, she’r, maqol yoki hikmatli hikoyatlardan foydalanish o‘quvchining ruhiyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazishi, ularga ma’naviy ozuqa berishi animdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatlari hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilovov, I.Saydullayev.-T.: “Sano-standart”2016.
2. Alisher Navoiy. Aforizmlar.Toshkent-1961
3. “Pedagogik mahorat” A.Xoliqov Toshkent 2011



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA HAYOT VA INSON HAQIDA FALSAFIY TUSHUNCHALAR TALQINI

Ashurova Shoira Shodiyevna
TTYeSI Akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi
+ 99894-620-21-72

Annotatsiya: Abdulla Oripov turli mavzularda she'rlar yozgan va ular o'zbek adabiyotining noyob durdonalari hisoblanadi. Abdulla Oripov she'riyaing eng asosiy mavzusi bu hayot va unda insonning o'rnidir. Shoир fikricha, shaxsning ozodligi uning ruhiyatida. Uning ruhi, fikri hur bo'lganligi bois doimo harakatdadir. Inson har doim adolatga intiladi. Erkin inson hayotda qandaydir iz qoldirishi mumkin, boshqalarga foydasi ko'proq tegishi mumkin. Maqolada shoир falsafiy qarashlari, uning insonga bo'lgan muhabbati misollar orqali izoh beriladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, she'riyat, inson, hayot, lirika, badiiy vosita, ruhiyat, haqiqat, adolat

O'zbek adabiyotining hali hanuz dillarni hayajonga solib kelayotgan shoир-u adiblari borki, ayni XX asr adabiyotidek porloq, kelajak sari talpingan zotlar boshqa davrlarda juda kamdan kam topiladi. Abdulla Oripov she'riyati ko'pehilik bir ovozdan e'tirof etganidek, o'zbek poeziyasida muhim o'ringa ega bo'lgan she'riyatdir. Uning she'riyatida xalq qalbiga yaqinlik, inson armon va dardlarini topib so'ylash, insonning rangin tuyg'ularini rassomona ko'z bilan ilg'ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi – shoир she'rlarining takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlaridandir. Shoирning ushbu misralari bilan uning she'rlaridagi inson va hayot haqidagi falsafiy qarashlarini tahlil qilishni boshlaymiz.

Qadimiylar
Ta'riflashib dunyoni,
Tilga ko'p olishadi
Uch boshli ajdahoni.
Aslida ajdahoga
Uchta bosh nega kerak?
O'ljani yutsa biri
Ikkovi poylar sergak.
Inson ajdaho emas,
Bittagina boshi bor.
Barcha savdoni unga
Sig'dirmoqligi darkor...

«Shoир o'z she'rlarida qahramonning ruhiyatini ochishda, ko'ngil nidolari tasvirida majozlar, ramzlar yetakchi badiiy vositaga aylanadi. Shoир inson erki, millat ozodligi g'oyasining ko'ngil nidolarini ramzlar tiliga ko'chiradi. Shoир she'riyatidagi psixologizmni lirik qahramon ongtafakkurida nurlangan, tagi buzilmagan o'y-fikrning holatlar, kayfiyatlar tarzidagi tasvirini, tabiat, ijtimoiy voqelik va hayot hodisalari ta'sirida ko'ngilda tug'ilgan tuyg'ular to'foni manzaralari tarzida anglash joiz. Shoирning qalbini larzaga solayotgan og'riq chin ma'noda o'zligini anglash uchun talpinayotgan shaxsni tasvirlaydi. Shaxs ham barkamollik istab, dunyoning sirini tushunmoq payida eziladi, sitiladi. Dunyoning bebaqoligidan xavotirlanadi. Ezgin savollar iskanjasida qovuriladi. «Lahzalik sevinch»ni anglagan inson tabiatida, «lahzalik visol»ni ham teran idrok etadi. Bu haqda «to'la to'kis, kamchiliksiz, armon va afsussiz kun o'tishini, hech bir iztirob chekmagan, usiz o'tmagan kun yo'q»ligini nozik kuzatish bilan ta'sirli qilib ifodalaydi. Bu esa shoирning hech kimdan yashirmagan siri, qalb dardi yo'qligidan nishonadir. Uning lirik qahramoni o'zining shaxsiy kechinmalarini qoralab, o'zigagina tegishli narsalarni birovga aytib berayotgandek maydonga chiqadi. Ya'ni shoирning qalbi ochiqdan ochiq bizga yuzlanadi. Savol nigohi ila ko'ngilni zabit etgan satrlari bilan sehrlaydi, hayajonga soladi, butun murakkabligicha mahliyo aylaydi. Ana shu oraliqda shoирning ham, o'quvchining ham samimiyatiga putur yetmaydi. Abdulla Oripov «yara»lari ochiq shoirdir. U hech bir yashirishni, o'quvchisidan darig' tutgan narsasi yo'qligini shu kabi satrlarida ham to'laligicha ilg'ash mumkin. Shunday ekan, shoirlar shaxsini hamisha saqlashga, yangi-yangi ma'nolar kashf etishga o'zini bag'ishlaydi. Bag'ishlamoq esa, adabiyotda jonfidolikka aylanadi. U ham boshqalar kabi azob bilan yashay boshlaydi. Azoblar



ichra to‘lg’onadi, qiynaladi, iqrorlarini o‘quvchilariga ulashadi. Dardchil satrlari ila kitobxonga borlig’ini tuhfa etadi. Haqiqat vaadolat tarannum etishni o‘ziga g’urur va burch deb biladi. Unga Vatan ham, suyukli yor ham, ona ham do‘s-t-u birodarlar ham, yaproq va daraxtlar ham birday azizdir. Ana shu azizlikning qadrini ham his eta oladi. Qolaversa, shuni o‘quvchisiga tushuntiradi. Tarbiyalanuvchining o‘zi shaxs yuksakligiga ko‘tarilgan zotlar va ularning asarlari bilan tanishishi favqulodda ijobjiy natijalar berishi mumkin. Quyidagi she’rni tahlil etib, fikrlarimizni davom ettiramiz:

Men muhit tomonga yuzimni bursam,
To‘rt fasl bir joyda jam ko‘rinadi.
Bunda baxti qaro kuylaydi xurram,
Baxti raso dilda g‘am ko‘rinadi.
Uzoqni ko‘zlagan otliqni ko‘rdim,
Qismati eshakka bog‘liqni ko‘rdim.
Muhabbatdan dili dog‘liqni ko‘rdim,
Kulsa ham ko‘zida nam ko‘rinadi
Besamar arzlarda umri xazonlar,
Befoyda bahslarda umri xazonlar,
Behuda darslarda umri xazonlar
Qoshida ming yillik sham ko‘rinadi.

Shoirning bezovtaligi, sodda misralarda yashiringan qalb va hayot falsafasi, san’at, samimiyat, kechasini unutib, ertasini o‘ylamaydigan insonning ahvoli, umrning mazmunli-yu, ma’nosiz lahzalarini qanday tushuntirilmoqda? Shunday ekan, shoirlar qalbidagi yuzlab qismatlar yashiringani, ayni haqiqat ekanligi emasmi, shu satrlarda mujassamlashgan. Abdulla Oripovning qaysi she’rini olib, o‘qib ko‘rmaylik uning yoniq chehrasi, o‘ychan qiyofasi, bezovta ruhiyati aks etgan yuzi ko‘z oldimizga keladi. Unday bo‘lsa shoirning eng buyuk g‘ami nima ekan, buni o‘sha samimiylar satrlarda ilg‘ab, tushunib bo‘ladimi? Ha, degan javob keladi tilimizga. Sababi u qanchalik ochiq yuz chehrali ekanligi, bu ham mayli dilidagi taskin izlayotgan lirik qahramon siz va biz yoki barchamiz ekanimiz ayonlashadi. Shuning uchun Umarali Normatov qayd etganidek: «Fikrni, asar g‘oyasini o‘quvchiga sodda, tushunarli qilib etkazish orqali hayot voqealarini, inson kechinmalarini yorqin tasvirlay olish san’ati har qanday ijodkor mahoratining darajasini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri», ekanligiga urg‘u beradi.

Ma’lumki, badiiy san’atlar poetik fikrni chiroyli, ta’sirchan ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sabab shoirning badiiy kashfiyotlari uning she’rlarida she’riyat ilmidan xabardor odamlar uchun juda oson tuyuladi. Ammo kitobxonda esa bu hol kuzatilmaydi. Unga ta’sir etsa, ko‘nglidagi savollarga bir qadar javob topa bilsa bo‘ldi, shuning o‘zi bilan kifoyalanib qoladi. Sof estetik san’at asarlari esa buni har bir jumla, satrlaridan ilg‘ab oladi, shoirning badiiy tafakkurining qanchalik yuqori ekanligini isbotlab beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. U.Normatov Ijodning qo‘sh qanoti.-G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 1981. 5-bet
2. Qo‘sjonov M., Suvon Meli. Abdulla Oripov. Ijodiy portret. –T.: Ma’naviyat, 2000.
3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. Birinchi jild. She’rlar va dostonlar. –T.: Adabiyot va san’at, 2000.
4. Hamdamov A. Abdulla Oripov she’riyatida insoniylik talqiniga doir. – Toshkent, // O‘zbek tili va adabiyoti, - 1998. - № 2.



QISSASI RABG'UZIY ASARINING MUMTOZ ADABIYOTIMIZDAGI AHAMIYATI

Akbarova Mayram Mashrabovna
Abdukarimova Shoxida Abdulkakimovna

Namangan viloyati Mingbuloq tumani
12-maktabning Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: maqolada mumtoz adabiyot yodgorliklarimiz xususan, Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarining hozirgi yoshlarni ma'naviy-ruhiy komil qilib tarbiyalashdagi ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zları: mumtoz adabiyot, komillik, poetik tafakkur, "Qissasi Rabg'uziy".

Ma'lumki, mumtoz adabiy yodgorliklarimiz xalqimiz poetik tafakkurining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi qadriyatlar tizimi bo'lishi bilan birgalikda, uning ma'naviy – ruhiy komillikka erishuvida muhim rol o'ynagan manbalardan biri ham hisoblanadi. Shunday o'tmish merosimizning nodir yodgorliklaridan biri bo'lgan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asari XIV asrda yaratilgan nodir adabiy yodgorlik sifatida xalqimiz tarixida alohida ahmiyatga ega. Darhaqiqat, Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asari payg'ambarlar faoliyati haqidagi qissalardan tashkil topgan diniy-adabiy asar bo'lib, asarda dunyoning yaralishi, birinchi inson Odam Atodan oxirgi payg'ambar Muhammad (s.a.v.)gacha bo'lgan payg'ambarlar faoliyatiga oid turli hikoyalarni rivoyatlar keltirilib, qissalar turkumi sifatida yagona tizimga birlashtirilgan.

"Qissasi Rabg'uziy"ning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu asar yuqorida aytganimizdek, yer yuzining paydo bo'lganidan boshlab so'nggi payg'ambar – Muhammad hayotiga doir bo'lgan voqealarni tasvirlar ekan, ularda kishilarni to'g'rilikka, komilikka, axloqan poklikka chaqirishi bilan yuksak ahmiyat kasb etadi. Asar shu sababdan o'z vaqtida "Qissas ul-anbiyo", "Qissas ul-anbiyoi turkiy" nomlari bilan ham mashhur bo'lgan.

Asosan, payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi bu asarni bu darajada mukammal, o'qimishli chiqishiga sabab nazarimizda, Rabg'uziyning "Qur'on", "Hadis" kabi diniy manbalarni chuqur bilgani, shuning bilan birga tarixiy, islomiy asarlarni yaxshi o'zlashtirgani va xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan rivoyat, turli diniy hikoyalardan bevosita va bilvosita foydalanganligida deb o'ylaymiz. Zero, hikoyatlar mazmuni va tuzilishidagi yaqinlik, hikoyatlar qahramonlarining qissa qahramonlari faoliyati bilan uyg'unligi, shubhasiz, bu janrdagi asarlar Sharq xalqlarining yaxlit badiiy tafakkuri mahsulidir. Asar yetmish ikki qissadan iborat bo'lib, ularning hajmi, kompozitsion tuzilishi turlichadir. Qissalarning ba'zilari o'zaro ichki fasllarga – qismlarga bo'lingan. Goho shunday o'rinalar uchraydiki, bir qissa ichida uning mazmunini to'ldiruvchi tamoman yangi mazmundagi mustaqil rivoyat keltiriladi. Syujet tarkibiga diniy rivoyatlar qatori dunyoviy yo'nalishdagilari pand-nasihat, didaktik targ'ibot ruhidagi qiziqarli rivoyatlar bayoniga keng o'rinni ajratilgan. "Qissasi Rabg'uziy" asarini o'rgangan adabiyotshunos olim, – asardagi hikoyatlarni quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mutasavviflar va tasavvuf axloqiga oid hikoyatlar.
2. Axloqiy-ta'limiy hikoyatlar.
3. Ijtimoiy mazmundagi hikoyatlar.
4. Mo'jizaga oid hikoyatlar.

Asardagi qissalar payg'ambarlar to'g'risidagi afsonalar bilan bog'liq bo'lgani, ularga asoslangani tufayli ularning diniy xarakterda bo'lishi tabiiydir. Lekin qissalar asosini payg'ambarlar to'g'risidagi rivoyatlar tashkil etishiga qaramasdan, asarda dunyoviy yo'nalishdagilari, pand-nasihat ruhidagi rivoyatlarning ham keng o'rinni olgan. Ko'rinish turibdiki, "Qissasi Rabg'uziy" asari, garchi anbiyolar to'g'risidagi majmua bo'lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli o'laroq, o'zida dunyoviy mayllarning, xalq og'zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi. Shu bois asardagi qissalar mavzu jihatdan rang – barang. Olamdagagi butun mayjudot egasi bo'lgan Olloohni ulug'lash, payg'ambar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-onalarni farzand munosabatlari, vatan va mehnatsevarlik, erk vaadolat, do'stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabilar shular jumlasidandir. Asardagi hikoyalarini o'rganish jarayonida shunga shohid bo'lamizki, ularda insonparvarlik, yurtparvarlik insonni komillikka ko'tarish, ahloqiy poklik, ma'naviy barkamollik sari undash g'oyalari yetakchilik qiladi. Shuningdek, hikoyatlarning mazmuni Rabg'uziyning hikoyat tanlashdagi mahoratidan va



o‘z davrining ijtimoiy hayotini teran anglab olganidan dalolat beradi. Buyuk tarixiy shaxslar, afsonaviy donishmandlar asosiy qahramon bo‘lgan hikoyatlar Rabg‘uziy didaktik qarashlarining eng oliy nuqtasi sifatida yuzaga chiqqan. Har oyatlar izchil tahlil qilingan va hikoyatlarning maqsadi ohib berilgan. Hikoyatlarda ilgari surilgan bu o‘gitlar bugungi hikoyalar kabi katta epik syujetli emas, balki epik syujethi bo‘lgani holda qahramonning bitta qirrasi ob’ektga olingan. Yana shuni alohida qayd etish kerakki, Rabg‘uziy mahoratlari nosirgina emas, nozikta’b shoir hamdir. Chunki har bir qissa boshlanishida payg‘ambarlarning sifatlarini bayon etuvchi madhiyalar keltiradi. Bu madhiyalar, ba’zi qissalarning xulosa va xotimalari she’r bilan yozilgan. Ayrim g‘azallar voqealar ichida ham beriladi. She’rlar ko‘proq o‘zbek tilida, ba’zilari esa arab tilidadir. Qissalar tarkibida berilgan o‘zbekcha va arabcha she’rlar adibning nozikta’b zullisonayn shoir bo‘lganligidan darak beradi. Ushbu asarda 600 misra she’r o‘rin olgan bo‘lib, bular g‘azal, ruboij, qit’a, to‘rtlik, qasida, musammat janrlarida bitilgan. Asarda keltirilgan she’riy parcha va g‘azallar badiiy saviyasi bilan Rabg‘uziyning talantli shoir ekanidan ham dalolad beradi. Xulosa qilib aytganda, Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi. Asar o‘zining ma’rifiy – tarbiyaviy hamda badiiy – estetik ahamiyati bilan hozirgi avlodlar ma’naviy kamoloti uchun ham qadrlidir.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she’riyat. –T.: 1991
2. Tojiboyeva M. Komillik debochasi. – T.: 2013
3. Qurbaniyazov M. XIV asr o‘zbek adabiyotida hikoyat janri. – T.: 2019



O'ZBEK TILINING MA'NOSI HAYOTIMDA

Axmedov Alimjon Maxmudovich

«Muqobil energiya manbalari» kafedrasini o'qituvchisi

Andijon mashinasozlik instituti

olimjon.akhmedov@mail.ru

Annotatsiya: Zamonaviy davrimizda, katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash talab qilinadi, tezkor harakat, tezkor qaror qabul qilish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun xar qanday mutaxassislardan og'zaki va yozma nutq qobiliyatları talab qilinadi. So'zlashish madaniyati, muloqot qilish qobiliyati, odob-axloq qoidalari haqidagi bilimlar har qanday odamning tashrif kartochkasi bo'lib sanaladi, ayniqsa biznes dunyosida. Aniq xabar uchun mos so'zlarni topa olmaydigan muhandis fikrlar va qabul qilingan ma'lumotlarni to'g'ri taqdim etishda qiynaladi, professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi qiyin bo'ladi. Shuning uchun bilimli bo'lish o'z milliy tilimizni yahshi o'rganishdan va to'g'ri ishlatishdan boshlanadi.

Kalit so'zлari: Milliy til, "kompyuter tili", "davlat tili", "adabiy til".

O'zbek tili jahon tillari ichida ancha yosh. Vaqt keladi dunyoning barcha joylari bo'ylab o'zbek tili o'rganila boshlaydi. O'zbek tili - buyuk O'zbek xalqining milliy tili. Bu uning madaniy merosi, tarixining bir qismidir, shuning uchun men O'zbekiston fuqarosi ekanligimdan faxrlanaman O'zbek tili mening ona tilim. Tug'ilganidan beri u mening hayotimni to'ldirdi va nafaqat mening hayotimda, balki har birimizning hayotimizda ham katta ahamiyatga ega.

Bizning tilimiz qadimgi O'zbeklarning rivojlanish jarayonida uzoq vaqt davomida shakllangan. Uning yakuniy dizayni 14-asrning o'rtalariga kelib, turkiy, Arab va forsiy tillar orasida allaqachon mayjud bo'lgan alomatlardan foydalangan holda O'zbek alifbosini tuzdilar. O'zbek tili buyuk adabiyot tili va shu sababli u dunyoda shunchalik mashurki, bu haqda gapirmasa ham bo'ladi masalan «Meditina» so'zi birinchi bor o'zbek tilida aytilgan. Ayni paytda chet ellarda bir necha millionga yaqin o'zbek yashaydi, ular uchun o'zbek tili ona tili hisoblanadi; yana millionlab insonlar o'zbek tilini o'rganmoqda. Kelajak avlodni shakllantirishda uning o'rni ham yuqori. Biz bolalarimizga ertaklarning mehribon qahramonlari va buyuk o'zbek klassiklarining asarlari misoldida ta'lif beramiz.

Shunga qaramay, o'zbek tili men uchun nimani anglatadi? Bu, albatta, mening hayotimda alohida o'rinn tutadi. Bolaligimdan (men buni yaxshi eslayman) bobom menga o'zbek xalq ertaklarini o'qidi. O'shanda ham ularning ko'plarini esladi. Va keyin, allaqachon maktabgacha yoshda, men o'zim o'zbek tilidagi ko'plab kitoblarni o'qidim. Va bu menga o'zbek tili grammatisini yaxshi o'zlashtirishga imkon berdi. Va bolalar bog'chasida men barcha musobaqlarda qatnashishga harakat qildim va juda rivojlangan deb hisoblandim.

Biz qiyin, ziddiyatli davrda yashayapmiz, garchi asrning burilishi hech qachon oson bo'limgan. Biz "kompyuter tilida" gaplashamiz va ko'pincha o'z nutqimizda "yoshlar jargoni" ishlatib, chet el so'zlarini qo'shib yuboramiz, biz buyuk tilimizni endilikda bundan asraymiz, O'zbek tili xalqimizning mulki ekanligini unutmaymiz va biz uni himoya qilishga majburmiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev davlat tili qonuni 30 yilligini nishonlab sozlagan nutqida 21 oktabr 1989yil "O'zbek tili davlat tili" deb e'lon qilishi bejiz emasdir degan. Bu bizni ko'p narsalarga majbur qiladi.

Shuni yodda tutishimiz kerakki, o'zbek tili do'stlik va hamkorlik uchun mustahkam asosdir. Bundan tashqari, o'zbek tilining jahon tsivilizatsiyasining rivojlanishi uchun ahamiyati yaqqol ko'rinish turibdi, chunki unda nafaqat o'zbek tilining, balki dunyoning boshqa xalqlarining ham tarixi, madaniyati, ilmiy kashfiyotlari haqida ko'plab kitoblar yozilgan. Dunyo bo'ylab tarqalish darjasini bo'yicha bizning tilimiz 40 ta ogzaki va yozma shakillanib bolgan tillar ichida turadi.

Turkiy, jumladan, o'zbek tilining og'zaki adabiy shakli juda qadimiylari va ko'p qirralidir. Mahmud Koshg'ariyning XI asrda xalh og'zidan yozib olgan ba'zi adabiy parchalar mazmunan to'rt-besh ming yil ilgarigi davrga oiddir. Ammo so'z shakli nuqtai nazardan mazkur parchalar bundan bir yarim ming yilcha burun yozma shaklga kirgan. Adabiy til tarixi — umumxalq tilining, asosan, yozma shakli tarixi bo'lib, u o'z tarixini zamonomizgacha etib kelgan eng qadimgi yozma yodgorliklar — badiiy, tarixiy asarlar tilidan boshlaydi. Bizgacha etib kelgan umumxalq tili asosida yozilgan yodgorliklar qanchalik uzoq davrga oid bo'lsa, adabiy tilimiz tarixi ham shunchalik uzoq



tarixga ega bo‘ladi. O‘zbek adabiy tilining yozma shakli hozirgi turkiy

XIV — XV asr namoyandalarining asarlarini o‘rganganda, masalan, Navoiyning “Hayratul abror”, “Farhod va SHirin” dostonlarida uchraydi Bobur asarlari va sh. k. O‘zbek adabiy tilining yozma shakli tushunilishi qiyin so‘z va shakllari Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Munis, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Abdulla Qodiriy, Hamza asarlarida ham uchraydi

XI — XIV-asrlarda yaratilgan asarlarning ko‘philigi turkiy xalqlarning mushtarak merosidir. Bunga YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” (XI asr), Ahmad YAssaviy “Hikmatlar” i (XI asr oxiri XII asrlar), Ahmad YUgnakiyning “Hibatul haqoyiq” (XII asr oxiri XIII asrlar), Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Qutbning “Xusrav va SHirin”, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, “Nahjul Farodis” (XIV asr), “Me’rojnama” kabi asarlarni ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, XV asrning birinchi yarmida Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, YUsuf Amiri, YAqiniy, Gadoiylar tomonidan rivojlantirilgan va ulug‘ Navoiy yuksak cho‘qqiga olib chiqqan eski o‘zbek tilimiz tufayli o‘zbek adabiyoti, fani, madaniyatining shuhrati olamga yoyildi. XV asrda O‘zbek adabiy tili Navoiy va uning safdoshlari boshlab bergan adabiy tilga aylandi.

Adabiyotlar:

1. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. <https://zen.yandex.ru/m..>
3. <https://www.google.com>



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA SINONIM SO'ZLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Matnazarova Dilrabo Maxsudbekovna
Namangan davlat universiteti magistri
Telefon:+998(91)430-86-68
Dilrabo92@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'rlarida qo'lllangan sinonim so'zlarning she'r badiiy g'oyasini olib berishdagi o'rniga ahamiyat berilgan . Tahlil uchun shoirning "Tun manzaralari", "Savol", "Munojot", to'rtlik she'rlaridan parchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "Tun manzaralari", "Munojot", "Yaxshilik va yomonlik", to'rtliklar, grammatik, semantik, frazeologik sinonimlar

Abdulla Oripov she'rlarining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, shoir she'rlarida so'zlarning o'z va ko`chma ma'nolarini mahorat bilan qo'llaydi, leksik sinonimlardan unumli foydalanadi. Bunday usul shoir she'rlarining rang- barangligini ta'minlab, ularning xalqona bo'lismeni, xalq ongiga muhrlanib qolishini ta'minlagan asosiy unsurlardan biri hisoblanadi.

Shoir she'riyatida sinonim, ya'ni yozilishi va talaffuzi har xil, lekin ma'nolari bir xil bo'lgan so'zlarning qo'llanilishi shoir nutqining so'zga boyligi va so'z qo'llash mahoratidandir. Shoirning she'rlarini kuzatar ekanmiz, ularda mavzular xilma- xilligini guvohti bo`lamiz, ya'nniki shoir bir mavzu doirasi bilan cheklanib qolmaydi. Shoir Vatan, ishq, tabiat, do'stlik va boshqa mavzularda she'rlar yozganki, ularda qo'lllangan so'zlar xalqona ekanligi va ularning sinonim tarzida o'z o'rnida mahorat bilan foydalanganligi bilan o'ziga xosdir. Jumladan shoirning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rida ham buning guvohti bo`lamiz:

Men nechun sevaman O'zbekistonni
Tuprog'in ko`zimga aylab to'tiyo.
Nechun vatan deya yero osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho.
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin Jannat deb ko'z-ko'z etaman
Nechun ardoqlarkan tuprog`ini men
O'paman: Tuprog`ing bebafo , vatan!

Yuqoridaq to'tiyo aylamoq- ardoqlamoq- muqaddas atamoq-sevmoq, tanho- bebafo kabi qofiyadosh so'zlarning sinonim tarzda qo'llanganligi she'rning jozibadorligini yanada oshirishga, she'rdagi har bir satrning musiqador va serjilo bo'lishiga xizmat qilgan.

Shoirning "Tun manzaralari" she'rida esa tabiat mavzusining badiiy ifodasini ko'rishimiz mumkin:

Oqshom cho'ka boshlar ko'hna zaminga ,
Uzoq – yovuqlarda o'char chiroqlar.
Borliq asta -sekin yuz burar tunga ,
Qoraya boshlaydi yiroqlar.
Tungi sukutdir bu, tungi sukunat,
Orom tun to'shagin yo'qlay boshlaydi.
Kunduzdan charchagan uyg'oq mashaqqat,
Sokin tomirlarda uxmlay boshlaydi.
Qandoq go'zal chog' bu- samoviy holat,
Cheksiz koinot ham mudraydi sokin,
Uzoq majlislar ham tin olar bu vaqt
Bo'm- bo'sh ko'chalarda sukunat hokim

Ushbu parchada bir necha leksik sinonimlar mavjud. Xususan, Oqshom- tun, zamin- borliq-koinot, uzoq-yovuq- yiroq, mudramoq- uxmlamoq-tin olmoq, sukut-sukunat. She'r tarkibida



shu kabi leksik sinonimlarning keltirilishi she'r ma'no doirasining kengayishiga, fikrning rang-barangligini ko`rsatishga xizmat qilgan.

Yana shu mavzuda yozilgan "To`lin oy" she`rida ham ana shu holatning guvohi bo`lamiz:

Keksaygan hilolim, ey sen, to`lin oy,

To hanuz buzursan halovatimni.

Yodimga solursan endi hoynahoy,

Sochlari oqargan muhabbatimni.

Bilmadim qaydadir yotar sarg`ayib,

Otashin hislarim o`ralgan daftar.

Qaysidir go`shada bo`lmishdir g`oyib,

Bir zamon qo`limdan uchgan u kaptar.

Endi visol o`zga, o`zgadir firoq,

To`lin oy o`tinchim yodingda tutgin.

Bizning tomonlargayo`ling tushgan chog`,

Mening kulbamga ham mo`ralab o`tgin.

Satrillardagi hilol- oy, keksaygan- sochlari oqargan, muhabbat- otashin his, go`sha- kulba, yo`li tushmoq- mo`ralab o`tmoq so`zлари ham she`rning badiiy go`yasini ochib berishda asosiy o`rinni egallagan.

Abdulla Oripov she`rlarinining tahlili shuni ko`rsatdiki, shoir she`rlarida bir xillikka, so`z takroriga yo`l qo`ymaydi, har bir so`z ustida teran mulohaza yuritadi. Shu bois ham uning she`rlari hali hamon xalqi, adabiyot ixlosmandlari dilida mangu yashab kelmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Abdulla Oripov „Tanlangan asarlar” 4 jildlik 2- jild, Toshkent- 2001.
2. Abdulla Oripov „ Yillar armoni” Toshkent -1987. Matyoqub Qo`shjonov.
3. Abdulla Oripov „ Quyosh bekti” Toshkent – 2010. D. Begimqulov.
4. Abdulla Oripov „ Adolat ko`zgusi” Toshkent – 2005. D. Begimqulov

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000